

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA URBONIMLAR TIZIMI

Shermamatova Navbahor Orifjon qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal'a fakulteti O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: navbahorshermamatova7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada globalizatsiya jarayonlarining urbonimlar tizimiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, shahar, ko'cha va turli hudud nomlarining ijtimoiy, madaniy hamda lingvistik omillar bilan uzviy bog'liqligi yoritib beriladi. Shuningdek, global axborot oqimi va migratsiya natijasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar, urbonimlarning yangicha shakllanishi hamda ularning milliy identitetni ifodalashdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqolada keltirilgan fikr-mulohazalar urbonimlarni chuqurroq o'rganish va ularni tartibga solish masalalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: globalizatsiya, urbonimlar, toponimika, urbanonimika, shahar va ko'cha nomlari, til jarayonlari, madaniy integratsiya, milliy identitet, nomlash an'analari, urban makon, til va jamiyat.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние процессов глобализации на систему городских названий. В частности, подчеркивается неразрывная связь между названиями городов, улиц и различных территорий и социальными, культурными и лингвистическими факторами. Также рассматриваются изменения, происходящие в результате глобальных информационных потоков и миграции, новое формирование городских названий и их роль в выражении национальной идентичности. Представленные в статье идеи имеют большое значение для более глубокого изучения городских названий и их регулирования.

Ключевые слова: глобализация, городские названия, топонимы, урбанонимы, названия городов и улиц, языковые процессы, культурная интеграция, национальная идентичность, традиции именованья, городское пространство, язык и общество.

Annotation. This article analyzes the impact of globalization processes on the system of urban names. In particular, it highlights the inextricable link between the names of cities, streets and various territories and social, cultural and linguistic factors. It also examines the changes occurring as a result of global information flows and migration, the new formation of urban names and their role in expressing national identity. The ideas presented in the article are of great importance in the issues of deeper study of urban names and their regulation.

Key words: globalization, urban names, toponyms, urbanonyms, city and street names, language processes, cultural integration, national identity, naming traditions, urban space, language and society.

KIRISH

XXI asrda globalizatsiya jarayonlari deyarli barcha sohalarga, xususan, tilshunoslik va nomlash tizimlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Urbanizatsiyaning tezlashuvi, xalqaro aloqalarning kengayib borishi hamda turli

madaniyatlar o'rtasidagi integratsiya natijasida shahar muhitidagi nomlar — ya'ni urbonimlar tizimi ham muayyan o'zgarishlarga uchramoqda. Urbonimlar (shahar hududidagi ko'cha, maydon, tuman va turli obyekt nomlari) jamiyatning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari hamda ma'lum darajada ideologik qarashlarini o'zida aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik sifatida e'tirof etiladi.

Globalizatsiya jarayonlari har tomonni qamrab oladigan xarakterga ega bo'lgani uchun uni turli xil ilmlar o'rganaveradi. Shunisi ham e'tiborga loyiq, bu ilmlarning har qaysisi muammoning o'ziga tegishli qismini o'rganish bilan cheklanmay, shu ilmga tegishli tushunchalar tizimidan ham foydalanadi. Shuning uchun ham hozirga qadar "globalashtirish" tushunchasining hamma tomondan e'tirof qilingan yagona ta'rifi ishlab chiqarilgani yo'q¹.

E.Voroshilova "muayyan shahar taraqqiyoti tarixining turli davrlarida vujudga kelgan shahar ichidagi atoqli otlar milliy til va madaniy-tarixiy makonning muhim tarkibiy qismidir", deb ta'kidlaydi².

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar belgilaridagi atoqli otlar ham ommaviy kommunikatsiya maqsadlariga xizmat qiladi. "Bu axborotni taqdim etishning eng ixcham va iqtisodiy shaklidir"³.

Globalizatsiya urbonimlar tizimiga bir xil ta'sir qilmaydi. Ya'ni barcha nomlar bir xil darajada o'zgarishga uchramaydi, balki ularning vazifasi va qayerda qo'llanishiga qarab farq qiladi. Shahar hududidagi nomlarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, ularni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchi, tarixiy va milliy ahamiyatga ega bo'lgan urbonimlar alohida guruhni tashkil qiladi. Bunday nomlar odatda xalqning o'tmishi, madaniyati va tarixiy xotirasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Masalan: **Alisher Navoiy, Bobur, Amir Temur, Beruniy va Ulug'bek** kabi buyuk alloma hamda tarixiy shaxslar nomi bilan atalgan ko'chalar deyarli barcha yirik shahar va tumanlarda uchraydi. Bundan tashqari, "Mustaqillik", "Istiqlol", "Do'stlik", "Vatan", "Yoshlar", "Xotira" kabi nomlar ham keng tarqalgan bo'lib, ular jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi.

Bunday urbonimlarning asosiy jihati shundaki, ular ko'proq milliy ruh va tarixiy xotirani saqlashga xizmat qiladi. Masalan, **Mustaqillik ko'chasi** yoki **Mustaqillik maydoni** nomlari mamlakatning erkinlikka erishgan tarixiy jarayonini eslatib turadi. **Amir Temur** nomidagi ko'chalar esa davlat tarixidagi buyuk sarkarda va uning merosiga hurmat ifodasi hisoblanadi. Shuningdek, **Bobur** yoki **Navoiy** nomi berilgan

¹ To'rayev V.A. Insoniyatga globallashtirish tahdidlari. // Jahon adabiyoti, 2003, noyabr. –B. 116–120.

² Voroshilova E.V. Onomastikon goroda Kanska kak otrajenie istorii i kulturyi naroda: dis. ...kand. filol. nauk. Krasnoyarsk, 2007. 244 s.

³ Morozova M. N. Nazvaniya kulturno-byitoviyih uchrejeniy//Rus. rech. 1973. № 6. –S. 54 – 59.

ko‘chalar ilm-fan, adabiyot va madaniyatga bo‘lgan e‘tiborni ko‘rsatadi. Bunday nomlar globalizatsiya ta‘siriga nisbatan ancha barqaror hisoblanadi, chunki ular zamonaviy trend yoki vaqtinchalik moda asosida emas, balki chuqur tarixiy va ma‘naviy asosga ega. Shu sababli ular vaqt o‘tishi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi, aksincha, milliy o‘zlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi turdagi nomlar qisman o‘zgarishga uchragan hisoblanadi. Masalan: **Yoshlar, Istiqlol yoki Navbahor** kabi nomlar zamonaviy ruhni ifodalaydi. Bu nomlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet til ta‘siri bo‘lmasa ham, ularning mazmunida hozirgi davrga xos qarashlar sezilib turadi.

Atoqli otlarning semiotik imkoniyatlarini hisobga olgan holda, hududiy marketing sohasidagi mutaxassislar ularning rolini va shunga mos ravishda joylarni tasvirlash va brendlashda nomlash faoliyatining ahamiyatini ta‘kidlaydilar⁴.

Eng katta o‘zgarishlar, ayniqsa, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi nomlarda yaqqol ko‘rinadi. Masalan: **City Mall, Mega Planet, Compass Mall, Next, Family Park, Magic City** kabi nomlar ko‘pincha ingliz tilida yoki xalqaro uslubda qo‘yiladi. Buning asosiy sababi — mijozlarni jalb qilish, zamonaviy ko‘rinish yaratish va obyektдан “xalqaro darajadagi” taassurot qoldirishdir. Ayniqsa, yirik savdo markazlari, ko‘ngilochar maskanlar, restoran va mehmonxonalar nomlashda chet tiliga ko‘proq murojaat qilmoqda. Masalan: “**Grand Hotel**”, “**City Palace**”, “**Asia Plaza**”, “**International Hotel**” kabi nomlar ham shular jumlasiga kiradi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, urbonimlar nafaqat nomlash vositasi, balki marketing va reklama vositasiga ham aylanib bormoqda.

Hozirgi paytda aralash, ya‘ni gibridd nomlar ham tobora ko‘paymoqda. Masalan: **Samarqand Darvoza Mall, Tashkent City, Asia.uz, UzExpo Center, Milliy Stadium, Central Park Toshkent** kabi nomlarda milliy va xorijiy unsurlar birgalikda ishlatiladi. Bu yerda bir tomondan mahalliylik saqlanadi, ikkinchi tomondan esa zamonaviy va xalqaro ruh beriladi. Ayrim hollarda esa nomning bir qismi o‘zbekcha, ikkinchi qismi inglizcha bo‘ladi, bu esa uni yanada jozibador qiladi.

Shuningdek, kafe va restoranlar nomlarida ham global ta‘sir kuchli seziladi. Masalan: “**Coffee House**”, “**Burger Zone**”, “**Pizza House**”, “**Street Food**”, “**BBQ Grill**” kabi nomlar kundalik hayotda keng uchramoqda. Ba‘zi hollarda esa milliy taomlar taklif qilinadigan joylar ham xorijiy nom bilan ataladi, bu esa globalizatsiyaning yana bir ko‘rinishidir.

⁴ Mühlhäusler P., Nash J. Signs of/on power, power on/of signs: language-based tourism, linguistic landscapes and onomastics on Norfolk Island // People, Places, Perceptions and Power / eds. G. Puzey, L. Kostanski. Clevedon: Multilingual Matters, 2016. P. 62–80.

Umuman olganda, bunday nomlar sonining ortib borayotgani shahar muhitida global madaniyat ta'siri kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Natijada urbonimlar asta-sekin nafaqat geografik belgi, balki zamonaviylik, obro' va raqobat vositasiga ham aylanmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, globalizatsiya urbonimlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shahar ichidagi nomlar vaqt o'tishi bilan o'zgarib, yangi ko'rinishlar paydo bo'lib bormoqda. Bunda ba'zi nomlar milliy va tarixiy mazmunini saqlab qolgan bo'lsa, boshqalari zamonaviy talab va global madaniyat ta'sirida yangicha shaklga ega bo'lmoqda.

Ayniqsa, savdo markazlari, restoranlar va turli xizmat ko'rsatish joylarining nomlarida chet tilidagi so'zlar ko'payib bormoqda. Bu esa shahar muhitining yanada zamonaviy va xalqaro ko'rinish olishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, milliy va xorijiy nomlarning aralash holda ishlatilishi ham tez-tez uchramoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'rayev.V.A. Insoniyatga globallashuv tahdidlari. // Jahon adabiyoti, 2003, noyabr. –B. 116–120.
2. Voroshilova E.V. Onomastikon goroda Kanska kak otrajenie istorii i kulturyi naroda: dis. ...kand. filol. nauk. Krasnoyarsk, 2007. 244 s.
3. Morozova M. N. Nazvaniya kulturno-byitoviyih uchrejdeniy//Rus. rech. 1973. № 6. –S. 54 – 59.
4. Mühlhäusler P., Nash J. Signs of/on power, power on/of signs: language-based tourism, linguistic landscapes and onomastics on Norfolk Island // People, Places, Perceptions and Power / eds. G. Puzey, L. Kostanski. Clevedon: Multilingual Matters, 2016. P. 62–80.